

Qayerga qarab ketyapmiz...

Allaqulova Sadoqat

Hozirgi hayotimizda yoshlarimiz orasida tez-tez ko'zga tashlanayotgan beparvolik deb ataymi yoki axloqsizlik, loqaydlikmi yoki farosatsizlik nomlashga qiynalayotgan, chetdan qaraganda qusurga o'xshaydigan illat haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Tong otishi bilan hamma o'z vazifasini bajarish uchun ko'chaga otlanar ekan transport vositasidan foydalanadi. Ayniqsa, jamoat transporti hamma uchun qulay. Avtobus va metrolardan foydalanar ekanmiz beixtiyor insonlarning bir-biriga qilayotgan munosabatiga guvoh bo'lamiz.

Misol sifatida yoshlarimizning o'zlariga loyiq ko'rayotgan bunday odatlardan hayronu-lol qolmaslikning iloji yo'q menimcha. Ya'ni katta yoshdag'i insonlarning tik oyoqda turishi, yoshlarning esa o'rindiqlarda o'tirib o'zini go'yoki uxlaganga solishi ayanchli holat. Nahotki biz shunday befarq yoshlarni tarbiyalayotgan bo'lsak? Hali oyog'ida kuch madori bo'la turib loqaydlarcha, hech narsa ko'rmagandek, bilmagandek o'tirishlari insonning g'azabini keltiradi. Nahotki yoshlarimiz hissizlashayotgan bo'lsa!.. Shumi keksalarga bo'lgan hurmat? Qani madaniyat? Qani oqibat? Biz qayerga qarab ketayapmiz o'zi? Yuzlarimiz shunchalik qattiqlashdimi? Mehr-shafqat degan tuyg'ular endi bizga begonami? Nahotki otanonamiz tengi keksalarga Mehr ko'rsatish shunchalik qiyin bo'lsa? Biz qandayin avlod bo'ldikki insoniyligimizni yo'qotish ostonasidaligimizni anglamasak? Bamisol dunyoni suv bossa ham pinagini buzmaydigan o'rdak misoli. Meni o'ylantirgan narsa Nima bilasizmi ?,,O'tir joyingga, o'zi joyini topib olsin "deya farzandiga „Nasihat "qilayotgan ayolning gaplari hayratimni yanada oshirdi. Mana asl sabab qayerda. Mana kelib chiqish manbai. Salomlashish odobini gapirmasak ham bo'ladi. Saylab salom beradigan ahvolga tushib qoldik. Shunday yoshlarimiz borligini o'zingiz ham ko'pbora guvohi bo'lgandirsiz? Bu bilan hamma yoshlar shunday demayapman. Oramizda bor albatta. Haqiqat achchiq bo'lsada, tan olmaslikning iloji yo'q. Aslida farzandlarimizning bu ayanchli ahvolga tushishiga oila muhiti va otalar sababchi bo'lib qolmayaptimikan? Nega farzandga bunday tarbiya berilyapti? Uning o'rniga „Bolam turaqol, ayolga joy ber, sen hali yoshsan", desa bo'lmas edimi? Bu holatning guvohi bo'lar ekanman nahotki farzandiga shunday tarbiyani ravo ko'rsa deya o'zimga-o'zim savol beraman. Onalarimizning bilib-bilmay yoki ilmsizligi natijasida farzandiga ko'rsatayotgan noto'g'ri yo'li kelajagiga albatta ta'sir ko'rsatishini bilmasa? Vatanimizga vatanparvar yoshlar kerak, loqaydlar emas. Men bu yozganlarim bilan kimnidir aybdor qilish emas, shunchaki ko'rgan va ta'sirlangan voqeamni sizlar bilan bo'lishdim. Yozganlarimni o'qib xulosa chiqarish sizdan.